

BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN BILAN SHUG'ULLANGAN SHAHZODALAR**Ramazonova Nilufar Nurali qizi****Buxoro davlat universiteti “Tarixshunoslik, manbashunoslik
va ilmiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi magistri
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17405686>**

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi madaniy-intellektual hayotida Amir Muzaffar farzandlari faoliyatining o'rnini yoritiladi. Tadqiqotda ilm-fan va adabiyot bilan shug'ullangan shahzodalar — Abdulahadxon, Sayid Mir Nuriddin to'ra, Mir Muhammad Siddiq (Xishmat) va Sayid Muhammad Nosir to'raning hayoti, ijodi va merosi tahlil qilingan. Shuningdek, ularning tarixnavislik an'analari, adabiy asarlari va ilmiy merosi Buxoro davrining madaniy jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Mang'it sulolasi, Amir Muzaffar, shahzodalar, ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik, Abdulahadxon, Mir Muhammad Siddiq, Sayid Muhammad Nosir.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается роль сыновей эмира Музафара в культурно-интеллектуальной жизни Бухарского эмирата во второй половине XIX – начале XX веков. Анализируется деятельность принцев, занимавшихся наукой и литературой — Абдулахад-хана, Саййида Мира Нуриддина тюры, Мира Мухаммада Сиддика (Хишмат) и Саййида Мухаммада Носира тюры. Особое внимание уделяется их литературному наследию, историческим трудам и научным интересам, которые рассматриваются в контексте культурных процессов Бухары данного периода.

Ключевые слова: ухарский эмират, династия мангытов, эмир Музаффар, принцы, наука, литература, историография, Абдулахад-хан, Мир Мухаммад Сиддик, Саййид Мухаммад Носир.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida Mang'it sulolasi hukmdorlarining faoliyati muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, Amir Muzaffarning farzandlari orasida ilm-fan, adabiyot va tarix bilan shug'ullangan, ijodiy meros qoldirgan shahzodalar bo'lgan. Ularning faoliyati orqali Buxoro amirligi davridagi madaniy-intellektual muhit, ilmiy an'analari va adabiy jarayonlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqotda Amir Muzaffar farzandlarining ilmiy va adabiy merosi hamda ularning Buxoro tarixidagi o'rnini tahlil qilinadi.

Bizgacha mang'it amirlari orasida Amir Muzaffarning farzandlari haqida to'liqroq ma'lumotlar yetib kelgan. Ular haqidagi eng ko'p ma'lumotlar mahalliy tarixnavislar xususan, Sadriddin Ayniy, Mirza Salimbek, Sayid Muhammad Nosir asarlarida uchraydi. Xususan, Mirza Salimbek o'zining “Tarixi Salimiy” asarida Amir Muzaffarning o'n beshta o'g'li, ularning qisqacha hayoti va faoliyati haqida to'xtalib o'tadi.

Rus manbalarida ham bu kabi ma'lumotlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Ular orasida Shubinskiy, Andreyev va Chexovichlarning asarlarida bu kabi ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Amir Muzaffar farzandlari orasida ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan shahzodalar qatorida bo'lajak amir Abdulahad ham bo'lgan. U yoshligidan shahzodalarga beriladigan an'anaviy ta'lim shaklida saboq olgan. Savodi chiqgach, fors va arab tillari o'rgatilib, Qur'onni yod olgan. Unga shariat qonun qoidalari o'rgatilgach, sharq adabiyoti namunalari bilan tanishtirilgan. Ustozi Hamid Ma'qul unda ilmiy mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olgan.

Amir Abdulahad yoshligidan she'riyatga qiziqqan va "ojiz" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Lekin maxsus devon tuzmagan. Uning ijod namunalarini ayrim ijodkorlar tazkiralarida uchratishimiz mumkin.

Mirza Salimbekda keltirilishicha, Amir Muzaffarning ikkinchi o'g'li Sayid Mir Nuriddin to'ra judayam aqli va olim kishi bo'lgan. U "hayo" taxallusi ostida bir qancha ajoyib she'rlar yozgan. Uning doim otasini tinglaganligi va itoatda bo'lganligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, u dastlab Qarshi viloyatiga so'ngra Chorjo'y viloyatiga hokim qilib tayinlanadi. U erta yoshda sil kasalligidan vafot etadi.

Amir Muzaffarning to'qqizinchi o'g'li Mir Muhammad Siddiq Buxoriy ibn Amir Muzaffardir. U "Xishmat" taxallusi ostida ijod qilgan. Uning hayoti haqida to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz.

U otasi boshqaruvi davrida Chorjo'y viloyatini boshqargan. Amir Muzaffar o'limi oldidan uni poytaxtga chaqirib oladi. Lekin otasining o'limidan so'ng akasi taxtga o'tirgach, unga havzi Dasturxonchi mahallasidan bir uy ajratib, "katta maosh tayinlab, unga cheksiz mehribonchilik ko'rsatganligi" aytiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, boshqa tarixchilarda uning bu holati uy qamog'i deya ta'riflanadi. Shuningdek, Abdulahadxon o'g'li Olimxonni unga kuyov qilganligi haqida ham ma'lumotlar bor.

Mirza Salimbekda keltirilishicha, "mazkur shahzoda dunyoni oxirat nuri bilan ekilgan daladek deb hisoblab, doimo ilm bilan mashg'ul bo'ldi va yaratuvchiga ibodat qildi. Suhbatlariga u olimlarni, ulamolarni, Qur'on qiroatchilarini taklif etar, ularning suhbatidan o'zi ham ko'p foydali narsalarni olardi. U turli sohalaridagi ilm va ilohiyotga oid ko'plab kitoblarni to'pladi, yetuk olimga aylandi va turli bilimlarga ega bo'ldi. Hayotida bir lahzani ham behuda o'tkazmadi."

Siddiqxon to'ra olim, astronom va shoir bo'lib, ko'plab kitoblar yozgan va o'zining boy kutubxonasiga ega bo'lgan. Inqilobdan so'ng kitoblarini Davlat kutubxonasiga topshirib, o'zi haj safariga chiqib, Pomirda vafot etgan. Ayrim manbalarda esa 1920-yilda Afg'onistonga muhojirlikka ketgan degan ma'lumotlar ham uchraydi. Shahzoda 35 yil umrini uy qamog'ida o'tkazadi.

Xishmatning astrologiyaga ham qiziqqanligi aytiladi. Uning "Majmuai zoiyai ahkomi nujum" ("Yulduzlar holati asosida tolenomalar majmui") asari uning dalilidir.

Mir Muhammad Siddiq ibn Amir Muzaffar tomonidan yozilgan asarlar:

1. "Devoni Hishmat" ("Hishmat Devoni"). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yozilgan. Qo'lyozma g'azal, muhammas, qasida va boshqalarni o'z ichiga oladi. Xati – nasta'liq. 48 varaq.
2. "Daftari musavvadayi Hishmat" ("Hishmatning qoralama daftari").
3. "Nomai Xusravon" ("Shoh noma"). Qo'lyozma 1495-yildan boshlab to muallif zamonigacha bo'lgan davrda yashagan, she'r yozish bilan shug'ullangan hukmdorlarga bag'ishlangan tazkiradir. Muallif asarni yozishga 1892-1893 yillarda kirishgan va 1913-1914yillarsa tugatgan. Xati – nasta'liq. 75 varaq.
4. "Majmuayi Zoiya ahkomi nujum" ("yulduzlar holati asosida tolenomalar majmui"). XX asr boshlarida yozilgan. Avtograf. 259 varaq.
5. "Majmuai al-bayoz". adabiy-tarixiy to'plam. XIX asr oxirlarida yozilgan. 259 varaq.

Hishmat tomonidan ko'chirilgan asarlar:

1. "Maohofi javohiri Alloh saho". Muallifi – Mir Husayn bin Muhammad al-Husayniy an Nishopuriy. XIX asrda ko'chirilgan. 10 varaq.

2. “Manoqibi shayx Xolid Ziyovuddin an-Naqshbandiy al- Mujadidiy Qodiriy” (“Shayx Xolid Ziyovuddin Mujadidiy Qodiriyning ta’rifi”). 1915-yilda ko’chirilgan. 12 varaq.

Hishmat tomonidan ko’chirilgani taxmin qilingan asarlar:

1. “Janobi al-qulub ala diyor al- mahbub” (“Mahbublar mamlakati ustidagi qalblarning egasi”). Muallifi – Abdulhaq ibn Sayfiddin at- Turk ad-Dehlaviy al-Buxoriy. 1890-yilda ko’chirilgan. 248 varaq.

2. “Mahosan al-kalom va badoe ul-nizom”. Muallifi – Abul Hasan Nasr bin al-Hasan al-Marg’inoniy. 1875-yilda ko’chirilgan. 18 varaq.

3. “Aruzi Sayfi” (“Sayfiy Aruzi”). Muallifi – Mavlono Sayfiy Buxoriy. 1894-yilda ko’chirilgan. 40 varaq.

4. “Qandiyai xo’rd” (“Kichik qandiya”). Muallifi – Imom Abulfazl Muhammad ibn Abduljamil ibn Abdulmalik ibn Haydar as- Samarqandiy. 1896-1897 yillarda ko’chirilgan. 40 varaq va h.k.

Amir Muzaffarning yana bir og’li Sayid Muhammad Nosir to’ra. U bir necha yil davomida otasi bilan birga safarlarda va xavf-xatarlarda uning oliy hamrohlari safida bo’lgan. Otasi unga bir viloyat ajratib beradi. Biroq ko’p o’tmay amir Muzaffar vafot etgach, viloyat boshqaruvi unga topshirilmay qoldi.

To’rayev H. H. ga ko’ra mang’it hukmdorlari, ayniqsa keyingi sohibi tojlar voyaga yetgan valiahdlarni iloji boricha poytaxtdan nariroqda saqlashga harakat qilishgan, toki ular toj-taxt talashib beqarorlik va tashvish solmasin. Aksariyati yirik bekliklar boshqaruviga tayinlanib, markazdan uzoqlashtirilgan. Ayrimlari esa, biror yoqqa chiqmaslik, siyosiy jarayonlarga aralashmaslik sharti va majburiyati bilan Arkda saqlangan. Sayid Muhammad Nosir to’ra ham shu shahzodalar qatorida bo’lgan. U “To’rayi jilav” (“Jilovlangan to’ra”) taxallusi bilan bir umr Ark kutubxonasida ijod bilan shug’ullangan.

Buxoroda sovet hokimiyati o’rnatilgandan keyin ham uning ijod ishlari davom etadi. 1921-yilda Buxoroda ilk o’lkashunoslik jamiyati – “Tarixi anjuman” tashkil etiladi. Unga ko’plab rus olimlar qatori, mahalliy tarixchilar ham a’zolikka qabul qilinadi. Ark qo’rgonida uzoq yillar istiqomat qilgan, arkning ichidagi barcha binolarni o’z ko’zi bilan ko’rgan, ko’plab ma’lumotlarga ega shaxs sifatida Nosir to’ra ham bu jamiyatga kiritiladi. Shu tariqa uning Ark haqidagi dastlabki ilmiy asari “Tahqiqoti Arki Buxoro” fors tilida yozib tugatiladi. Ushbu asar XX asrda Arkka bag’ishlangan 1-maxsus asardir.

Muallifning qayd etishicha, asar 1921-yilda tashkil etilgan “Anjumani tavorix” jamiyati tashabbusi bilan yozila boshlanadi va shu yili fors tilida yozib tugallanadi. Muallif asarni yozishda bir qancha tarixiy asarlarga tayangani haqida aytib o’tadi. Xususan, “Tarixi Narshaxiy”, Yoqut al-Hamaviyning “Mo’jam ul-buldon”, al-Balsiyning “Majmua ul g’aroyib” asari tarixchi va geograf Hofizi Abruning asari va muallifi noma’lum “Tarixi Jahonkushoy” asaridir.

Asarda Buxoroning nomlari, Buxoroning qadimgi davri, Siyovush rivoyati, Somoniy hukmdorlari, arablar va Chingizxon bosqini haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Ashtarxoniylar va Mang’itlar davrida sulola a’zolarining ark va unga tutash hududlarda qurdirgan imoratlar haqida aytib o’tadi. Asarni ko’zdan kechirar ekanmiz, uzoq yillar davomida ark ichida istiqomat qilgan kishi sifatidan tarixchidan ark haqida batafsil va qiziq ma’lumotlarni kutish tabiiy holdir. Lekin Nosir ibn Muzaffar ark haqida juda qisqa ma’lumotlarni keltirib o’tadi. Shuningdek, tarixchi “Ayon bo’lsinki, Somoniylar saltanati zikridan so’ng, navbati bilan

Buxoroda saltanat sugan va uni poytaxt qilgan sultonlar toifasi haqida mufassal ma'lumotlar topa olmadim" – deya asarning qisqa bir shaklda yozilish sababini izohlaydi.

Undan tashqari Nosir to'raning "Tuhfat az-zoyirin" ("Ziyoratchilarga tuhfa"), "Hodi ul-zoyirin" ("Ziyoratchilarni hidoyat qiluvchi"), "Kunuz al-atqiy" ("Taqqvodorlar xazinasini"), "Osor us-salotin" ("Sultonlar haqida xabarlar") kabi asarlari ham ma'lum.

"Osori as-Salotin" asari O'zFa Sharqshunoslik institute xazinasida 1422 raqami ostida saqlanmoqda. Qo'lyozmaning kirish qismida 1322 hijriy sanasi qo'yilgan. Demak, muallif milodiy 1904-yilda asarni yozishga kirishgan. Asarning tugallangan yili noma'lum. Mazkur asar ham fors tilidagi nasta'liq xatida bitilgan va 54 varaqdan iborat. Asar an'anaviy hamd bilan boshlanadi va Sayid Nosiriddin Sayyid Amir Muzaffariddin, ya'ni muallifning o'zi ko'p qadimiy kitoblarni mutolaa qilganligi, Buxoro sultonlari tarixini yozishda "Ravzat us-safo", "Tarixi Muqimxoniy", "Tarixi Vojiz", "Tuhfai xoniy", "Tarixi Muin", "Majmuai qozi" kabi asarlarga asoslanganligini yozadi.

Nosiriddin ibn Muzaffarning "Tuhfat ul-zoirin" asari Sadri Ziyoning "Majmuai tazkira" asari bilan birgalikda O'zFa Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondida 2193 raqami ostida saqlanmoqda. Mazkur nusxa to'laligicha ko'chirib tugallanmagan. Xati nasta'liq, fors tilida, 20 varaqdan iborat. Asarda Buxoro shahri va uning tashqarisidagi mozorlarga dafn etilgan aziz avliyolar va ulug' zotlarning qabrlari tog'risida muhim ma'lumotlar uchraydi.

IX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi madaniy hayotida Amir Muzaffar farzandlari muhim o'rin tutgan. Ular orasida ilm-fan, adabiyot va tarix bilan shug'ullangan shahzodalar o'z ijodi, qo'lyozma asarlari hamda ilmiy merosi orqali Buxoro intellektual muhitining boyishiga katta hissa qo'shganlar. Abdulahadxonning she'riyati, Mir Nuriddin to'raning adabiy faoliyati, Mir Muhammad Siddiq (Xishmat)ning ilmiy va badiiy ishlari, shuningdek, Sayid Muhammad Nosir to'raning tarixiy asarlari Buxorodagi ilmiy-ma'rifiy jarayonlarning muhim qismi hisoblanadi.

Shuningdek, bu shahzodalar faoliyati orqali o'sha davrda hukmdorlar va sulola a'zolari nafaqat siyosiy hayotda, balki ilmiy-adabiy jarayonlarda ham faol qatnashganliklari yaqqol ko'rinadi. Ularning asarlari bugungi kunda Buxoro amirligi tarixini, madaniy-ma'naviy muhitini va tarixnavislik an'analari o'rganishda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк (кремль) Бухары. – Душанбе: издательство "Дониш", 1972. – 217 с.
2. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – Ташкент: "Akademiya", 2009. – 330 с.
3. Sadriddin A. Asarlar. I tom."Qisqacha tarjimai holim". – Toshkent: O'z SSR "Davlat badiiy adabiyot" nashriyoti, 1963. – 355 b.
4. Sadriddin A. Asarlar. V tom."Esdaliklar". – Toshkent: O'z SSR "Davlat badiiy adabiyot" nashriyoti, 1965. – 310 b.
5. Sadriddin A. Asarlar. VIII tom. – Toshkent: O'z SSR "Davlat badiiy adabiyot" nashriyoti, 1965. – 310 b.
6. To'rayev H. Buxoro tarixi yozma manbalari. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2023. – 188 b.
7. Шубинский.П.П. Очерки Бухары. "Исторический вестник". Петербург. 1892.

8. Masaliyeva O. Amir Muzaffarning tarixchi o`g`illari // Moziydan sado. – 2004. – №2 (22). – B. 30-32